

# IQLIM O'ZGARISHI

Uglerod izini qisqartirish bo'yicha maslahatlar

## MAKTABDA

Ushbu afishani maktabingizda yoki uyingiz yo'lagiga osib qo'ying.

Ushbu maslahatlar haqida do'stlaringiz va tanishlaringizga gapirib bering.

**ISHTIROK ET!**  
Iqlim o'zgarishiga kurashishda

## HAR BIR KUNGA MASLAHATLAR

Suv quvuri jumragini yaxshilab berkit.

Buyumlarni avaylab ishlat, shunda ular uzoq xizmat qiladi.

Printerdan kamroq foydalan, qog'ozni teja.

Qayta ishlash va ikkilamchi foydalanish uchun chiqindilarni sarala

Ikkilamchi xom-ashyodan ishlab

chiqarilgan yoki qayta ishlovdan o'tishi mumkin bo'lgan buyumlardan foydalan

Tabiatni va resurslarni **SAQLA!**

## MAKTABGA BORISH YO'LIDA, DAM OLISHDA VA SAFARDA

Ko'proq piyoda yur va velosipeddan foydalan.

Jamoat transportidan foydalan.

Boshqa shaharga safarda, agar u uncha uzoq bo'lmasa, samalyotdan ko'ra poezdni afzal bil.

Uglerod izingni kamaytir!

## DO'KONDA

Siz ota-onangiz bilan do'konga borayotganingizda:

- Xaltangizni oling – bir martali o'ramalardan kamroq foydalaning;
- Energiya sarfi kam bo'lgan maishiy elektr uskunalarini sotib oling;
- Tashib keltirishda kam energiya sarflangan mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini sotib oling.

Uglerod izingni **KAMAYTIR!**

**Uglerod izi** – bu insonning energiya resurslaridan foydalanishi yoki xaridlari sababli shakllanadigan barcha issiqxona gazlari chiqindilarining yig'indisidir.

**CO<sub>2</sub> (karbonat angidrid)** – iqlim o'zgarishiga ta'sir etadigan asosiy issiqxona gazidir. U energiya olish uchun foydalaniladigan neft, ko'mir kabi qazib olinadigan yoqilg'lar va tabiiy gazni yoqish natijasida atmosferaga ajralib chiqadi. Demak, kundalik energiya va resurslar sarfini kamaytirish bilan CO<sub>2</sub> chiqindilarini, kamaytirish va sayyoramizga yordam berish mumkin. Buni qanday amalga oshirish mumkin?

**QISQARTIR! ISHTIROK ET! SAQLA** – maslahatlarini o'qi.

# QISQARTIR! ISHTIROK ET! SAQLA!

## UYDA ENERGIYATEJAMKORLIK

Qishda elektr isitgichlardan foydalanmaslik uchun xonadoning yoki uyingni issiqlik saqlash qobiliyatini oshir.

Xonadan chiqishingda chiroqni o'chir.

Energitejamkor lampochkadan foydalan.

Mobil asboblarni zaryadlaydigan qurilmalardan foydalanmasang ularni rezetkadan uzib qo'y.

Kompyuter, televizor va iqlimiy boshqa elektr uskunalarini ishga tayyor holatda qoldirma, **вкл/выкл** tugmachalaridan foydalan yoki ularni tarmoqdan uzib qo'y.

Kiyimlarni nisbatan pastroq, ya'ni 30-40 °C da yuvishga harakat qil.

Xolodilnikni ochishdan oldin, undan nima olishni bilib ol. Qancha suv kerak bo'lsa, shuncha suvni qaynat.

Ovqat tayyorlashda kastyulka yoki spovorodka qopqog'ini yopib qo'y, shunda energiya sarfi 2,5 marta kamayadi.

Uglerod izingni **KAMAYTIR!**



**IQLIMYI SANDIQCHA**

